

**MAHALLADA OILALARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH
ISTIQBOLLARI.**

Nabiyeva Mexribon Rabbimkulovna

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA.

Mazkur maqolada jamiyatning muhim negizi oila va mahallaning hamjihatligi asosida jamiyatni rivojlantirish xususidagi islohotlar, mahallada oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishni tashkil etish, uning maqsad va mohiyatini o'z aksini topgan. Shuningdek Vazirlar mahkamasi huzurida tashkil etilgan Oila institutining vazifalari, institutni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad va imkoniyatlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *oila, oila instituti, oila demografiyasi, mahalla instituti, farovon jamiyat, psixologik xizmat, tadqiqot, qadriyat.*

ANNOTATION.

In this article, the important basis of the society is the reforms of the development of the society based on the unity of the family and the neighborhood, the organization of psychological services for families in the neighborhood, its purpose and essence are reflected.

Also, the tasks of the Family Institute established under the Cabinet of Ministers, the goals and possibilities of the organization of the institute were highlighted.

Key words: *family, family institution, family demography, neighborhood institution, prosperous society, psychological service, research, value.*

Xalqimizning eng yuksak milliy va manaviy qadriyatlarni o'zida shakllantirgan mahalla va oilani jamiyatning muhim negizi sifatida o'zbek milliy taraqqiyot modelining tarkibiy yo'nalishlaridan biri sifatida qabul qilindi. Mahalla va Oila xalqimizda azal-azaldan tarkib topib kelayotgan, jamiyatimizda chuqur ildizga ega ijtimoiy institut sifatida o'zni beqiyos. Mamlakatimiz buguni va kelajagi taraqqiy etishida oila va unda kamol topayotgan har bir yosh avlod hayoti uchun, oiladagi sog'lom muhit va munosabatlar fuqorolar o'zini -o'zi boshqarishning sharqona ko'rinishi bulgan mahalla bilan bevosita bog'loq.

Bugungi kunga qadar yurtimizda mahalla va oila hamkorligi orqali fuqorolarga har tomonlama yordam ko'rsatish, soha doirasidagi muammolarni bartaraf etish, oila va mahalla institutlarini har tomonlama qo'llab quvvatlashga davlat siyosati darajasida etibor qaratib kelinmoqda. So'nggi yillarda ushbu sohada keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Qabul qilingan qarorlar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Vazirlar mahkamasi

huzuridagi “Oila” ilmiy -amaliy tadqiqot markazi, “Mahalla ziyosi” o’quv uslubiy markazi negizida O’zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo’llab quvvatlash vazirligi huzurida “Mahalla va oila” ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi. Bu kabi islohotlar avvalo jamiyatimiz a’zolarining farovonligini ta’minlash, mahalla va oilaning hamkorligi orqali vujudga kelayotgan muammolarning ildiziga barham berish, yosh oilalarni mustahkam va yetishib kelayotgan kelajak avlodga o’zbekona madaniyatni yetkazib berishdan iboratdir.

Mahalla va oila ilmiy tadqiqot institutining asosiy vazifalari etib quyidagi jihatlar nazarda tutilgan:

- Jamiyatda obod va xavfsiz mahalla tamoyiliga asoslangan tizimni to’laqonli va samarali joriy etish;
- Mahallalar va oilalarda sog’lom va barqaror ijtimoiy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlash,
- Xalqimizning milliy va ma’naviy qadriyatlarini e’zozlash va targ’ib qilish, shu jumladan oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, ilmiy asosini ishlab chiqish,
- Mahalla va oilani qo’llab- quvvatlash sohasidagi dolzarb ilmiy muammolarga bag’ishlangan ilmiy -amaliy seminarlar, yig’ilishlar tashkil qilish ushbu sohada yuqori kadrlarni tayyorlash.

Oila murakkab ijtimoiy -madaniy hodisa hisoblanib ,ijtimoiy hayotning davomiyligini tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydigan kelajak avlod qadriyatlar tizimiga o’z ta’sirini ko’rsatadigan ijtimoiy makon hisoblanadi. Oila erkak va ayol o’rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-ona va farzandlar o’rtasidagi munosabatlardan tashkil topgan unstitut.

Mahalla O’zbekistonda ma’muriy hududiy birlik, o’z-o’zini boshqarishning xalqimiz an’analari va qadriyatlariga xos bo’lgan usuli. Mahalla jamiyati orqali oilalarda shakllangan milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqimizning asrlar davomida saqlanib kelayotgan eng yaxshi udum va an’analari keng ommalashtiriladi. Mahallada oilalar tinchligi, farovonligi asosiy vazifa sifatida qaraladi. Shu o’rinda 2022-yilning “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla” yili deb e’lon qilinishi bu boradagi ishlarning izchil davomi deyishimiz mumkin. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev “Inson qadrini ulug’lash yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini ta’minlash demakdir. Bu borada jamiyatizning asosi bulgan mahalla hal qiluvchi o’rin tutadi.”-deydi.

So’nggi yillarda mahalla va oila hamkorligiga alohida e’tibor namunasi o’laroq, “Sog’lom oila -sog’lom jamiyat” konseptual g’oyasini hayotga tadbiiq etish, zamonaviy oilalarni qo’llab quvvatlash, har tomonlama ko’mak berish, oilaviy qadriyatlar va an’analarni targ’ib etish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirildi. Oila va mahalla instituti hamkorligida oilaviy hamjihatlikni yaratish, farovon

oila muhitini takomillashtirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 -yillarda xotin qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturning 91-bandida "Oila demografiyasi" ilmiy laboratoriyasini tashkil etish vazifasi qo'yildi. Mamlakatni ijtimoiy -iqtisodiy rivojlantirishda jarayonlarning o'rni katta bo'lib, aholi sonining oshishi, joylashishi, nikoh, ajrimlar, oilalar tarkibi va boshqa muhim jihatlarni ilmiy o'rganish va o'rgatish bugungi kunda dolzarb bo'lib bormoqda. Ijtimoiy ko'makga muhtoj xotin-qizlar, ehtiyojmand oilalarning huquqiy va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo'yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida eng quyi bo'g'in mahalla va xonadongacha kirib boradigan "Mahallabay", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi tizimlar joriy etildi. 2020-yilda "Saxovat va ko'mak" tizimi orqali qanchadan qancha ehtiyojmand oilalarga moddiy yordam ko'rsatildi. Yo'lga qo'yilgan yuqoridagi harakatlarning barchasi yurtimizda inson manfaati, qadri-qimmatini ulug'lash uni asrab avaylashga qaratilgan. Yurtimizda ayollarni himoya qilish ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab quvvatlash maqsadida "Himoya ordeni" tashkil etildi. Mahallada oilalardagi nizo, kelishmovchiliklar, notinchlik va ajrimlarning oldini olish maqsadida Oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash komissiyalari tashkil etildi. Oiladagi turli xil kelishmovchiliklarni oldini olish uchun har oyda seminarlar, ilmiy -amaliy anjumanlar mahalla faollari, psixologlar, oila instituti xodimlari ishtirokida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mahalla institutini mustahkamlash, ijtimoiy nufuzini ko'tarishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Zero yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek "Mahalla xalq bilan davlat o'rtasida ko'prik bo'lishi kerak. Odamlarning quvonch va tashvishidan xabardor bo'lish mahallaning asosiy vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli farmoni hamda 2020-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4602-sonli qarori asosida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo'linmalari tashkil etildi. Bu orqali jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish yo'lida katta qadam qo'yildi.

Mahalla asrlar osha shakllangan sharqona o'zini o'zi boshqarish tizimidir. Shu boisdan keyingi paytlarda uning samaradorligini oshirish har tomonlama rivojlantirishga, moddiy texnik bazasini mustahkamlab, jamiyatdagi nufuzini yanada

ko'tarishga jiddiy ahamiyat berildi. Darhaqiqat, mahalla institutini takomillashtirish borasidagi chora- tadbirlar tub mazmun mohiyatiga ko'ra Vatanimiz taraqqiyotiga, aholi turmush farovonligini yanada yaxshilashga, fuqorolar yig'inlari ishini yuqori darajada tashkil etishga xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida jami 9627ta fuqorolarni o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 6855tasi yuridik maqomga egadir. Bu jarayonda esa psixologik xizmat amaliyoti muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik xizmatni 3 nuqtayi nazardan qarab chiqish mumkin:

1. Ilmiy nuqtayi nazar.
2. Tashviqot nuqtayi nazar.
3. Amaliy nuqtayi nazar.

Faqat mana shu nuqtayi nazarlarning birligigina psixologik xizmat predmetini tashkil etadi.

Psixologik xizmatning mazmuni:

- a) psixoprofilaktika;
- b) psixologik maorif va ma'rifat;
- d) psixodiagnostika;
- e) psixik rivojlanitirish va psixokorreksiya;
- f) psixologik maslahat.

Psixologik xizmat haqida Nizom 1996- yili Xalq ta'limi vaziri tomonidan tasdiqlangan 2001-yilda bu Nizomga o'zgartirish kiritildi.

Psixologik xizmat metodlari turli- tuman bo'lishi mumkin:

- a) xalq ta'limi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi xodimlari, o'quvchilar, talabalar bilan ma'ruzalar turkumi va trening mashg'ulotlari o'tkazish va aholining psixologik madaniyatini o'stirish maqsadida;
- b) ilmiy ommabop adabiyotlarni yaratish va ularni tarqatish;
- d) ommaviy axborot vositalarida chiqishlar;
- e) psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish, metodikalar ishlab chiqish (test savol varaqasi, tajriba, kuzatish, suhbat va boshqalar);
- f) psixologik maslahat berish;
- g) psixologik konsiliumlar otkazish;
- h) ta'lim va tarbiya beruvchi dasturlardan foydalanib psixodrama, psixokorreksion treninglarni amalga oshirish;
- i) psixologik tadqiqot obyektining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv dasturi, o'quv tarbiya rejalarini tahlil qilish va hokazolar. Yuqorida sanab o'tilgan psixologik xizmat vazifalari bosqichma -bosqich jamiyatimizdagi har qanday qatlamga o'z yordamini ko'rsatib kelayabti. Ayniqsa maktablarga psixologik xizmat keng yo'lga qoyildi va o'sib kelayotgan yosh avlod uchun tirgak vazifasini o'tamoqda desak bo'ladi. So'nggi yillarda oilalarga psixologik xizmat ko'rsatish o'z natijasini ko'rsatmoqda. Ajrimli holatdagi oilalar va yosh oilalarga psixologik xizmat ko'rsatish orqali aholi farovonligini ta'minlanmoqda. Bu jabxada mahalla ishtirokini aytib o'tish joiz chunki oila tinchligini, mustahkamligini

saqlab turish, ularga har tomonlama ko'maklashish mahallaning asosiy maqsadlaridan biri.

Mahallada psixologik xizmat amaliyotini tashkil etish uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- Mahallada yashab kelayotgan har bir fuqoroning yagona xususiyatlarga ega bulgan shaxsiy xaritasini yaratish.
- Mahallada muammoli oilalarni o'rganish va ularga psixologik xizmat ko'rsatishning bosqichma-bosqich tizimini ishlab chiqish
- Mahallada istiqomat qilayotgan kam ta'minlangan, yordamga muhtoj, nogironligi bor shaxslarga alohida yondashuv loyihasini ishlab chiqish, ular xususida qabul qilinayotgan qarorlar, imkoniyatlar to'g'risidagi malumotlar bazasini muntazam yetkazib berish.
- Mahallada jinoyatga moyil shaxslar bilan alohida shug'ullanish ularga jamiyatda munosib o'rnini ko'rsatishga ko'maklashish.
- Mahallani har tomonlama tizimli ravishda o'rganib, unda istiqomat qiluvchi har bir oila va har bir shaxsning o'ziga xos individual psixologik xaritasini tuzish va shu asosda mahallaga psixologik xizmat ko'rsatishning ilmiy amaliy jixatdan rejalarini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llash.

Muxtasar qilib aytganda, bugungi kunda mahalla va oila institutlarining mustahkamligini ta'minlashda "Farovon oila – farovon mahalla – farovon jamiyat" g'oyasini amalga oshirish, oilalarga psixologik xizmat ko'rsatish, mazkur institutlarni tizimli rivojlantirish va bu boradagi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, mahalla va oila institutlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar hamda oilalarga ta'sirchan metodik-konsultativ yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa mahalla va oila tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar, xususan, "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti jamoasi ham o'z oldiga mazkur institutlarni mustahkamlashga oid mavjud muammolarning innovatsion, ilmiy-amaliy yechimlarini izlash kabi vazifalarni qo'yimoqda. Ushbu vazifalarni hal qilish, mahalla va oila institutlarini yanada mustahkamlash, mahallada oilalarga psixologik xizmat ko'rsatish uchun hamkorlikda samarali faoliyat olib borish farovon jamiyat qurishdek buyuk maqsadga xizmat qilishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. <https://president.uz/uz/lists/view/409>
2. "Обод маҳалла" дастури тўғрисида"ги ПФ-5467-сон Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони. // <https://lex.uz/docs/3797772>

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
5. “Маҳалла тизими ходимлари кунини белгилаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. 2020 йил 2 март. ЎРҚ-606-сон // <https://lex.uz/docs/-4751676>
6. Oila psixologiyasi .G'.B.Shoumarov Toshkent 2008-yil.
7. <https://fingernail.ru>
8. <https://journals.indekscopticus.com>